

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

REFERAT

**Mavzu: Milliy manfaatlar kategoriyasini tadqiq
etishdagi asosiy nazariy yondashuvlar**

Bajardi: Bekdurdiyeva G.

Tekshirdi: Mustapova H.

Toshkent-2015

Milliy manfaatlarning tadqiq etishga asosiy nazariy
yondashuvlar

Reja:

1. Milliy manfaat" tuzilishi va hayotga tadbiq etilishi.
2. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlar tushunchasi va uning tuzilishi.
3. Davlat siyosatini va uning hayotiy muhim milliy manfaatlarini aniqlashning fundamental asoslari.

“Milliy manfaat” tuzilishi va hayotga tadbiiq etilishi sohasi siyosiy institutlar, partiyalar va umuman jamiyat e’tiborini tortmoqda. Bu juda qiyin va ko’p bosqichli, olimlar, siyosatchilar va turli darajadagi boshliqlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi jarayon. U yaxshi rejalashtirilsa – samaralidir. “Milliy manfaat” haqida so’z yuritar ekanmiz, Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so’zlarini keltirib o’tish joiz deb o’ylayman: “Shunga ishonchimiz komilki, xalqaro munosabatlar amaliyotida har bir mustaqil mamlakatning o’z milliy manfaatlariga muvofiq, o’z mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash maqsadi bo’lishi lozim. U yoki bu xalqaro tizimlarda va kollektiv xavfsizlik shartnomalarida qay darajada qatnashishini ularning o’zi belgilash huquqi nazarda tutilishi zarur”.

“Davlatchiligimizni mustahkamlashga va davlat tuzilmalarini takomillashtirishga qaratilgan qonun hujjatlari. Ular milliy manfaatlarni himoya qilishni ta’minlashga, mudofaa qobiliyatimizni va xavfsizligimizni mustahkamlashga hokimiyat organlari va boshqaruv tizimini shakllantirishga qaratilgan qator qonunlar tizimini o’z ichiga oladi”.

“Biz uchun mustaqillik - o’z erkinligimizni anglashgina emas, balki avvalo o’z hayotimizni o’z irodamiz bilan va milliy manfaatlarimizni ko’zlagan holda tashkil etish, o’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan qurish huquqidir. Shu bois o’z-o’zidan ayonki, agar integratsiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini cheklab qo’ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog’lansa, u holda chetdan olib kelinadigan har qanday integratsiya biz uchun nomaqbul”.

Xalqlar do’stligi Rossiya Universiteti professori Truxachev Vladimir Vladimirovichning fikriga ko’ra, “Milliy manfaat” tizimlari tashkilotchisi, reja muallifi sifatida u yoki bu davlatda amal qilayotgan siyosiy mexanizm hisoblanadi. Siyosiy mexanizmlar juda qiyin kompleksini aks ettiradi, ular hodimlar va tizimlar, bilim va emotsiya, muolaja va operatsiya, institutsion shakl va kommunikatsiya turlaridan iborat.

James F.Miskel milliy manfaatlarning tashqi siyosatda aniq tushuntirilgan

manfaat makon va zamonda qabul qila oluvchi aniq shakl sifatida namoyon bo'ladi. Markaziy manfaat esa uch omildan tashkil topib, u himoyalaniishi lozim bo'lgan manfaat tabiatidan, manfaat harakatda bo'ladigan siyosiy muhitdan va uning maqsad va vositalarni chegaralovchi ratsional ehtiyojlardan iboratdir.

P.A.Sigankovning fikriga ko'ra "Milliy manfaat" davlat xizmatchilarining ratsional tushunish darajalariga ham to'la moslashadi. Ratsional qarash asosi o'zida xalqaro munosabat o'ziga hosliklarini tan olishni ko'zda tutadi, bu esa uni "milliy manfaat" asosida to'g'ri ishlatish shartligini inobatga olishni ham anglatgan.

Ratsional qarash siyosatdagi mumkin bo'lgan harakatlar chegarasini qo'yib beradi, ob'ektiv turdagi to'siqlarni ko'rsatib beradi, qaysilarki qanchalik yoqimli bo'lmasin qarshilik ko'rsatayotgan reallikka u yoki bu xayoliy sxemani qo'llashga yo'l qo'ymaydi.

Bu to'siqlarni yo'qotishga qaratilgan har qanday harakat, amaliy natijalar haqida qayg'urish bo'ladimi ishonchli ko'ra bilish yoki siyosatdagi noaniqliklarni yengishga urinishlar bo'ladimi bari zavolga yuz tutadi. Chunki bu harakatlar xohish istakdan kelib chiqqan mavjud reallikdan emas. Shuningdek bunday urinishlar nafaqat utopik balki xavfli ham, chunki ko'p hollarda ular ideologik xohishiga asoslanadi.

Siyosiy realizmning asosiy tamoyillaridan biri milliy manfaatlarni dinamik tarzda o'zgarib borishi bilan aloqador. Morgentauning yozishicha, «Siyosiy realizm hoqimiyat uchun kurash deb tushuniladigan manfaat kontsepiyasi, o'zgaruvchan va ma'lum bir sharoitlarga asoslanadi». Ya'ni, manfaatlar tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, siyosiy sharoitlarga bog'liq, chunki milliy manfaatlar va davlat o'rtasidagi aloqa vaqt o'tgani sari yo'qola borishi mumkin. Bu bilan siyosiy realizm milliy davlatlarga bo'lingan zamonaviy dunyoni kelajakda davlatlararo ittifoqlardan yoki boshqa tuzilmalardan tashkil topgan shaklga aylanishini inkor etmaydi.

Siyosiy realizm kontseptsiyasining tarafdorlari xalqaro munosabatlarda asosiy kuch sifatida milliy manfaatlarni e'tirof etadilar. Kuch-qudrat kategoriyasi esa halqaro munosabatlar va jahon siyosatini tartibga soluvchi mexanizm sifatida ta'riflanadi.

Tanqidchilar G.Morgentauning «faqat bitta qat'iy talab, fikrlashda faqat bitta mezon, harakatning yagona tamoyili: milliy manfaatlar borligi haqidagi fikriga shubha bilan qarashdi. Realizm opponentlari undagi eng asosiy narsa - milliy manfaat mazmunining obyektivligini inobatga olishdan bosh tortishdi. Skeptiklar hatto qat'iy siyosiy realizm tarafdorlari qatorida ham topildi. Misol uchun R.Aron fikricha davlat ichidagi turli individlar va guruxlarga tegishli bo'lgan maqsadlar, vositalar va resurslar ma'lum bir teng ta'sir etuvchi kuchni hosil qilmaydi va milliy manfaatlarni tahlil mezoni yoki siyosiy arbob uchun ideal sifatida baholashga imkon bermaydi. Davlatning tashqi siyosati, uning etakchisining maqsadlarini tanlashda ma'lum darajadagi erkinlikka ega bo'lgan hatti-harakatlarida aks etadi. Bunda etakchilarning mafkurasi, nafsoniyati, temperamenti va boshqa sifatlari katta ahamiyatga ega. Biroq davlat etakchilarining holatidagi shartli jihat shundaki, ular guyo o'zlarining barcha hatti-harakatlari asosida milliy manfaat yotganday taassurot qoldirishga intiladilar.

Halqaro munosabatlar sohasi bo'yicha mashhur frantsuz mutaxasisi J.B.Dyurazel ham quyidagi fikrlarni bildiradi: «Albatta, agar ob'ektiv milliy manfaatni aniqlash imkoniyati bo'lganda yaxshi bo'lardi» - deb yozadi u - «shunda xalqaro munosabatlarni etakchilar tomonidan taklif etayotgan milliy manfaatni ob'ektiv milliy manfaat bilan taqqoslash yuli bilan etarlicha engil tadqiq qilish mumkin bo'lar edi».

Shu o'rinda yana bir olim Moskva Davlat Universiteti professori V.Germayer milliy manfaatlarga xotirjam va farovon hayotga eltuvchi bir vosita, yo'l sifatida qarab shunday degan: «har bir xalq, millat, elat, guruxlar har xil yo'llar bilan umumiy farovonlikkaga intiladilar. Bu umumiy farovonlik ularning milliy manfaatlaridir»

Eng oxirgi yillarda siyosatchilar Delfik nazariyasidan ko'ra milliy manfaatlarni yoritishga tayyor emas edilar.

Shunday qadimgi yunon fol kitobiga o'xshab, o'zining ikki tomonlamalik bashoratlari va ataylab maslahatni yashirmoqda, bugunning siyosatchilari rejadagidek keng miqyosda ta'rif berishga taklif qilishmoqdak ular millatning uzoq masofaga

mo'ljallangan bir yo'ldan ko'p bo'lgan maqsadlarini ochishni aniqlashga urinadi.

Umuman aytganda, milliy manfaatlarni qanday ifodalash uchun fikrning ikkita asosiy maktablari bor. Ulardan biri Otto Fon Bismark XIX asrda va Richard Nikson XX asrda milliy manfaatlar davlatning moddiy kuchi va boshqa xalqlarga bog'liq ta'sir etuvchi sharh deb tushunilishi kerak degan fikrda qoladi.

V.V. Mejev siyosatda milliy manfaatning qulayligini quyidagilarda ko'radi: mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy elitalarining faoliyatini aniqlashda yordam beradi; mamlakatning madaniy an'analariga javob beradi; uning jahon tarixidagi siyosiy, diniy va boshqa shaklda tutgan o'rni haqida tasavvur uyg'otadi; davlatning harbiy strategik o'rning mustahkamlanishiga yordam beradi; uning ijtimoiy-iqtisodiy o'rni yaxshilashga intiladi.

Xulosa qilib, "Milliy manfaat" o'z aksini tashqi siyosatda topadi. U tashqi ishlab chiqilishidagi asos sifatida, davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatidagi maqsadlari va ularga yetishish yo'llari asos sifatida qaraladi.

"Milliy manfaat"ni shakllantiruvchi siyosiy mexanizmlarni, davlatda kechayotgan siyosiy jarayon umumiy kontekstda ko'rish kerak, chunki davlat aktlari hajmi va tuzilishiga turli xildagi kuchlar, shu qatorda nodavlat faktorlar: partiya va guruhlar bosimi, OAV va ijtimoiy harakatlari, ommaviy va individual fuqarolar faolligi ham ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy mexanizmlar tuzilishi, davlat miqyosida milliy prioritetni amalga oshirish va faollashtirish ko'p holalarda ma'lum vaqtda siyosiy sahnada shakllangan, ma'lum manfaati balansini, akt kuchlari holat va natijalovchi munosabatlardir.

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlar tushunchasi va uning tuzilishi.

"Milliy manfaat" tushunchasi uzoq o'tmishdan ma'lum bo'lib, suveren davlat tashkil topishining ilk bosqichlaridayoq "milliy manfaat" "podshoh" tomonidan qo'l ostidagilarni dushman qarshisida birlashtirish, bosqinchilik yurishlarini oqlash, qirollik oilalarini birlashuvidagi asosiy omil, sabab sifatida ishlatilgan. Bu tushuncha

shuningdek Afina va Sparta munosabatlarining tayanchi sifatida Fukidikka yaxshi ma'lum edi. 1934 yildayoq Ch.Berd milliy manfaat - ratsional tushunish, aniq ta'rif, shuningdek alohida o'rganish ob'ekti bo'lishga qodir ekanligini ta'kidlagan.

Milliy manfaat – bu davlat tashqi siyosatining amaliyoti va nazariyasida, diplomatiyada, milliy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy tushuncha sifatida, xalqaro munosabatlar tizimida eng ko'p qo'llanadigan atamalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda “milliy manfaat” tushunchasi siyosatchilar, tadqiqotchilar, jurnalistlar va harbiy boshliqlar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Bu tushunchaga davlatning tashqi siyosati, tashqi va ichki faktorlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashda, xalqaro munosabatdagi prepetiyani o'rganishda muhim ahamiyat berilmoqda. Harbiy va milliy xavfsizlik konsepsiyasi, davlat doktrinalarida “milliy manfaat” hududiy yaxlitlik va suverinitetga tahdidning, tashqi siyosatning ustuvor jihatlari, mudofaa strategiyasi va iqtisodiy farog'atchilikning asosi va asosiy prinsipi sifatida ta'kidlab o'tiladi. Milliy manfaatlarni amalga oshirish va himoya qilish davlat zimmasiga yuklatilgan bo'lib, milliy manfaatlar asosida davlatning boshqaruv idoralari va institutlari tomonidan shaxs, jamiyat hamda davlatning hayotiy muhim manfaatlarini himoya etish asosida davlat siyosatining strategik maqsad va vazifalari ishlab chiqilmoqda.

Shu o'rinda yana bir olim Moskva Davlat Universiteti professori V.Germayer milliy manfaatlarga xotirjam va farovon hayotga eltuvchi bir vosita, yo'l sifatida qarab shunday degan: «har bir xalq, millat, elat, guruxlar har xil yo'llar bilan umumiy farovonlikkaga intiladilar. Bu umumiy farovonlik ularning milliy manfaatlaridir»

Milliy manfaat - bu aniqlangan davlat ehtiyojlari, ya'ni davlatning hozirgi davrdagi iqtisodiy va geosiyosiy munosabatlari, xavfsizlikni ta'minlash shartligi, tashqi xavflardan va ichki tartibsizlik, tabiiy ofatlardan aholini himoya qilishni nazarda tutadi.

Bu ibora o'zbek tiliga rus tilidan, rus tiliga esa g'arb ingliz siyosiy adabiyotidan kirib kelgan, bu ibora u erda “davlat manfaati ” ma'nosiga ega. Milliy manfaatni ko'p

hollarda davlat manfaati sifatida tushunishadi, chunki g'arb davlatlari turli millatli "ko'pmillatli" davlatlardir. (nafaqat etnik, balki jamoaviy tomondan ham). Millat bu – fuqarolik jamiyati va davlat birlashmasidir.

Milliy manfaat bu birlashgan ikki tomondagi kelishmovchiliklarni yo'q qiluvchi manfaatdir.

Tashqi o'rab turuvchi dunyoga nisbatan milliy manfaat davlatning tashqi siyosiy manfaatlari bilan birgalikda namoyon etiladi, ular hayotiy faoliyatdagi muhimligi bilan ajralib turadi, farqlanadi.

O'zgarmas, doimiy va o'zgaruvchan milliy manfaat ajraladi. O'zgarmas – davlatning tashqi xavfsizligini ta'minlash vazifasini o'z oldiga qo'yadi.

O'zgaruvchan – vaziyatga qarab milliyodatlar, siyosiy boshliqning shaxsiy xislatlaridan, iqtisodiy va jamoaviy sohalaridagi tendensiyaga qarab shakllanadi.

Davlat rivojlanishidagi real ashyoviy va siyosiy ehtiyojlar o'zgarishi mumkin, ular bilan birga manfaatlar, maqsad, vosita va tashqi siyosiy faoliyat ham o'zgaradi. Davlat manfaati va ehtiyojlarining o'zgarishiga olib keladi, manfaatlar barcha harbiy, iqtisodiy, diplomatic va ideologik vositalar orqali ta'minlanadi.

"Milliy manfaat" ning nazariy va ularning asosiy amaliyotchilari, shuningdek boshqa nazariy va siyosiy yo'nalishlarda keng ishlatilishi hech bo'lmasa ikki sabab bo'yicha yaxshiroq e'tibor berishimizni talab etadi.

Birinchi, bo'rttirilgan tasavvurlarga qaramay siyosatda "milliy manfaat"ga suyanish bu kuchini suiste'mol qilish, ayyorlik, egoistik degani emas, balki yashash huquqining e'tirofi, shuningdek albatta ikki tomonning manfaatlarini hurmat qilish va e'tiborga olishni ko'zda tutadi.

Ikkinchi, nazariyada real paradigma tomondagi o'zining alohida fan sifatidagi obro'si uchun siyosiy realizmga qarzidor, siyosiy realizmning tahlil asosi esa "milliy manfaat" hisoblanadi. Shuning uchun "milliy manfaat" tushunchasiga sharh bergan siyosiy realizm "otasi" Gans Margentau fikrlariga to'xtalib o'tamiz.

"Milliy manfaat" – ob'ektiv tushuncha bo'lib, u davlatning geografik

joylashuvdagi individuallik va bundan kelib chiqadigan bir tomondan iqtisodiy, siyosiy va madniy rivojlanishdagi o'ziga hoslik, ikkinchi tomondan esa inson tabiatidagi farqqa asoslangan. Shuning uchun ham "milliy manfaat" davlatning xalqaro siyosatidagi doimiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki davlatning geosiyosiy joylashuvi uni o'rab turgan va u kurashayotgan xavf – xatar tabiati, shuningdek aholi ijtimoiy- madaniy odatlari, tashqi savdo tuzulishi kabi jihatlar har kuni o'zgar olmaydi, shuning uchun ham "podsholiklarning" subyektiv xohishlariga bog'liq emas. G. Margentau fikriga ko'ra "milliy manfaat" ikki asosiy elementga ega:

1. Markaziy (doimiy)
2. Ikkinchi darajali (o'zgaruvchan)

Ikkinchi darajali element –bu aniq shakl, qaysiki "milliy manfaat" ildizini vaqt va zamonda qabul qiladi.

Markaziy element esa 3 faktordan tashkil topgan: himoya qilinishi kerak bo'lgan manfaat tabiati, u amal qilayotgan siyosiy muhit, maqsad va vositalar tanlovini cheklovchi ratsional shartlardan iborat

Odatda tushiniladigan asosiy milliy – davlat manfaati o'z ichiga 3 elementni oladi:

- Harbiy xavfsizlik;
- Iqtisodiy farovonlik va rivojlanish;
- Ma'lum bir hudud va millat ustidan davlat suverineteti asosi sifatida nazorat yoki millatni erkin va mustaqil davlat sifatida saqlash.

Ba'zan quyidagi elementlar ham qo'shiladi:

- Milliy farovonlikning o'sishi;
- Jahon maydonida iqtisodiy va siyosiy pozitsiyalarni himoya qilish ;
- Uning dunyo siyosatidagi ta'sirini kengaytirish.

Biroq bugungi kunda “milliy manfaat” yanggi faktlar va holatlar tufayli sezilarli o'zgarishlarga yo'liqmoqda. Hozirgi taxlikali zamonda, globallashuv davrida “milliy manfaat”, ichki barqarorlik, iqtisodiy farovonlik, jamiyat ma'naviy quvvati, xavfsizlik (keng ma'noda), do'stona va yaxshi tashqi siyosiy muhit va xalqaro maydondagi obro' e'tibor kabi sharoitlarsiz ta'minlana olmaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, milliy manfaatni faqat yuqorida aytib o'tilgan bir – biriga uzviy bog'liq bo'lgan omillarning balansidagina ta'minlanishi mumkin. Ularning to'lqin ta'minlanishi faqat idealda mavjud. Hayotda esa ba'zi bir element yoki sharoit qoloqligi, yaxshi rivojlanishga ega bo'lganlari tomonidan qoplanib yuboriladi. Bunday balansini saqlab turishdan xalqaro siyosat san`ati va asosi tashkil topgan.

“Milliy manfaat” o'z aksini tashqi siyosatda topadi. U tashqi ishlab chiqilishidagi asos sifatida, davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatidagi maqsadlari va ularga yetishish yo'llari asosi sifatida qaraladi.

Shunday qilib, manfaat - bu doimo ongli talabdir. S.Mitroxin shunday deydi: «Bu o'rinda manfaat tushunchasining o'zi ibora bo'lib, bu erda gap faqatgina ongli emas, balki halq, yoki davlatning o'z-o'zini himoya qilish, tiklashning ongsiz imkoniyatlari haqida bormoqda. Yana milliy manfaat davlat ehtiyojlarining uning etakchilari faoliyatida anglanishi va aks etishi hamdir. Bu ko'p millatli va etnik jihatdan turli xil bo'lgan davlatlarga tegishlidir. Aslida «milliy manfaat» deyilganda davlat manfaatlari nazarda tutiladi».

Milliy manfaat integratsion o'zaro aloqaning har qanday shakllarida dolzarbdir. Har qanday ittifoqchilik munosabatlari biralshuvining milliy manfaat kabi azaliy motivatsiyasi ko'zda tutadi, aks holda, bu haqiqiy ittifoqchilik munosabati emas, balki qurol, mafkura, iqtisodiy shantaj, volyuntarizm va shu kabilar kuchi bilan birlashtirilgan davlatlarning konglomerati bo'ladi.

Milliy manfaat tushunchasining asosiy yo'nalishlari: milliy xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolar farovonligini oshirish bilan chambarchas bog'liqlikda ko'rib chiqish lozim.

Milliy manfaat tushunchasini, shuningdek, “milliy manfaat” soʻzining barcha mazmun-maʼno jihatlari, xususiyatlari bilan qarab chiqish kerak. Avvalo, “milliy manfaat” – bu biror narsaga alohida eʼtibor qaratgan, mohiyatga yetish, bilish, anglashning faol istagini bildiruvchi faol, harakatchan kategoriyasidir. Bu manfaat obyekti ahamiyatini tushunish hamdir: millat uchun jiddiy ahamiyatga ega xalqaro hayot hodisalari, muammo va dalillarigina milliy manfaat obyektlari boʻlishi mumkin. Albatta, biz “milliy manfaatlar” deganimizda, talab, ehtiyojni tushunamiz, ular qoniqtirilmas ekan, millat va davlatning mavjudligi muammoli boʻlib qoladi. Shuni ham eʼtirof etish lozimki, “milliy manfaatlar” – bu foydagʻaraz degani hamdir, ularsiz tashqi iqtisodiy strategiyani, jahon maydonida davlatning xulq-atvor taktikasini qurib boʻlmaydi.

Xulosa qilib, davlat siyosatini va uning hayotiy muhim milliy manfaatlarini aniqlashning fundamental asoslaridan biri uning geosiyosiy holati hisoblanadi. Oʻz navbatida, geosiyosiy holat xalqaro maydonda milliy manfaatlar tizimining oʻzgaruvchan xarakteri bilan, barqarorlik omillarini izlash va xalqaro munosabatlarni oldindan aytish yoʻllarini topish bilan davlatlar va ularning milliy manfaatlari oʻrtasidagi kuchlar nisbatini aniqlash va shakllantirish zaruratini buyuradi. Davlatning milliy manfaatlari va uning xavfsizligini taʼminlash muammolari mamlakat ichkarisida ham, uning yaqin atrofida hamda tashqarisida ham mojaroli vaziyatlarni bartaraf etish, mintaqaviy integratsion birlashmalar, geosiyosiy jarayonlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Oʻz navbatida milliy manfaatlar davlatlar milliy xavfsizligiga boʻlgan tahdidlar aniqlashning muhim mezoni boʻlib hisoblanadi.